



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

IBN RUSHD FALSAFIY QARASHLARIDAGI “IKKI HAQIQAT” KONSEPSIYASINING NAZARIY VA G‘OYAVIY ASOSLARI

Iroda Ikramova

O‘qituvchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ibn Rushd, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Miskavayh, “Ikki haqiqat”, din, falsafa, uyg‘unlik, peripatetizm.

Annotatsiya: O‘rta asrlar Sharqi va G‘arbi ma’naviy uyg‘unligi o‘ziga xos zaruriyat sifatida shunday shaxslarni yaratdiki, ular bir yo‘la bir necha qit‘alarni birlashtira oldilar. Masalan, buyuk arab-ispn faylasufi Ibn Rushd nafaqat buyuk faylasuf, balki u Afrika va Osiyoni, Osiyo va Yevropani, xristianlik va islomni bir-biriga bog‘laydigan ko‘prikdir. Bundan tashqari, Ibn Rushd tufayli Yevropa o‘zini o‘zi qayta tanidi. U buyuk yunon faylasuflarining asarlarini arab tilidan ispan tiliga tarjima qilishi bilan Yevropa xalqlarini yunon madaniyatining gultoji bo‘lgan Aflotun va Arastu falsafasi bilan tanishtirdi. Avveroizmda esa ilm-u aqlning cho‘g‘lari ilk bor jilovlanib, ko‘zga tashlandi. Bu ilmi aqliya keyinchalik Dekart, Spinoza, Leybnis kabi buyuk aql egalarning yetishib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ibn Rushd o‘rta asr musulmon olamida “falsafa” atamasi bilan bog‘liq Sharq peripatetizmi maktabining so‘nggi yirik vakili hisoblanadi. U sharq peripatetizmi asnosida ratsional va naturalistik dunyoqarashlar rivojlanishining xotimasida bo‘ldi.

Mazkur maqolada Ibn Rushdning din va falsafa bir-biriga parallelligini va bir-biriga zid bo‘lmagan o‘zaro teng mantiqiy nuqtayi nazar sifatida bir xil hodisalarning natijasi ekanligi yoritilgan. Bu xulosalariga asoslangan Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” konsepsiyasining nazariy va g‘oyaviy asoslari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, faylasuflarni va ilohiyotchilarni ham birdek o‘ylantiradigan masala din va falsafa uyg‘unligi bo‘yicha turli xil fikrlar keltirib o‘tilib, qiyosiy tahlil qilingan. O‘ylaymizki, o‘rta asrlar faylasuflarining fikrlari din va falsafa o‘rtasidagi munozaralarga hali ham ta’sir qilishi mumkin.

THEORETICAL AND IDEOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF "TWO REALITIES" IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF IBN RUSHD*Iroda Ikramova**Lecturer,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ibn Rushd, Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Ibn Miskawayh, "Two truths", religion, philosophy, harmony, peripatetic.

Abstract: The spiritual harmony of the Middle Ages East and West, as a special necessity, created such individuals who were able to unite several continents at once. For example, the great Arab-Spanish philosopher Ibn Rushd is not only a great philosopher, but he is a bridge connecting Africa and Asia, Asia and Europe, Christianity and Islam. Moreover, Europe rediscovered itself thanks to Ibn Rushd. By translating the works of the great Greek philosophers from Arabic to Spanish, he introduced European peoples to the philosophy of Plato and Aristotle, the founders of Greek culture. And in Averroism, the embers of knowledge and reason were brought to light for the first time. This scientific thinking led to the emergence of great intellectuals such as Descartes, Spinoza, and Leibniz. Ibn Rushd is the last major representative of the Eastern school of Peripateticism associated with the term "philosophy" in the medieval Muslim world. He concluded the development of rational and naturalistic worldviews during Eastern Peripateticism.

This article highlights Ibn Rushd's view that religion and philosophy are parallel to each other and that they are the result of the same phenomena as mutually equal logical views that do not contradict each other. The theoretical and ideological foundations of Ibn Rushd's concept of "Two Truths" based on these conclusions are presented. Also, the issue that worries philosophers and theologians alike, various opinions on the harmony of religion and philosophy are presented and comparatively analyzed. We believe that the ideas of medieval philosophers can still influence the debate between religion and philosophy.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ КОНЦЕПЦИИ «ДВЕ РЕАЛЬНОСТИ» В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ИБН РУШДА*Iroda Ikramova**Преподаватель,**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Он состоит примерно из 8-10

Аннотация: На публикацию принимаются не опубликованные ранее оригинальные материалы,

слов и словосочетаний. Ключевые слова должны выражать основное содержание статьи и в основном состоять из важных понятий, относящихся к данной области.

связанные с тематикой Востока и рубриками журнала. Статья сдаётся в редакцию в объёме (не включая аннотации, ключевых слов, а также списка использованной литературы) 10–12 страниц, в распечатанном и электронном вариантах с не менее двумя рецензиями (внутренняя и внешняя), текст статьи в Microsoft Word, в формате А4, шрифт – Times New Roman, размер шрифта – 14, поля с обеих сторон – 2 см, интервал между строками – одинарный, отступ – 1,25 см.

В аннотации, упоминая основные черты статьи, следует учитывать следующее:

- она должна включать основные детали работы; информация, не упоминавшаяся в статье, не описывается;
- структура статьи отражается и в аннотации: введение, цели, методы, стили, результаты / дискуссии, выводы / размышления;
- кратко предоставляются определенные результаты;
- не следует повторять заголовков статьи, приводить вводные лишние фразы (например, автор хочет упомянуть об этом...);
- не следует давать никаких ссылок; – объём аннотации должен состоять из 250–300 слов;

KIRISH

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar faylasuflar, dinshunoslar, islomshunoslar oldiga zaruriy ravishda yangi muammolarni qo‘yimoqda. Hozirgi kunda jahon miqyosida bo‘layotgan g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar – bu kishilarning ongi, e‘tiqodi hamda dunyoqarashi uchun kurash hisoblanib, bu kurashda, ayniqsa, din omiliga, xususan, islom diniga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bunda, eng avvalo, kishilarimiz ongida to‘g‘ri e‘tiqodni va sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish va buning uchun islom dini ta‘limotini har tomonlama o‘rganish va tadqiq etish muhim vazifaga aylanmoqda.

Ilmiy tafakkur tarixi shuni ko‘rsatadiki, din va ilm-fan, o‘zaro tafovutlarga qaramay, ijobiy yo‘llarda o‘zaro ta‘sir o‘tkazishlari mumkin. Din va ilm-fan o‘rtasidagi munosabatlar asrlar davomida munozara mavzusi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, ayniqsa, zamonaviy Yevropada zamonaviy ilm-fan rivojlanib borgandan keyin paydo bo‘lgan. Din ham, ilm ham ekzistensial savollarga javob beradi va keng ma‘noda voqelikning tavsiflari va tushuntirishlarini taklif qiladi. Biroq, bu dunyoqarashlarning haqiqat deb ta‘kidlagan narsalariga erishish yo‘llari bir-biridan farq qiladi: din e‘tiqodga asoslangan bo‘lsa, fan oqilonalik usulidan foydalanadi. Ushbu fundamental farq muhim savolga olib keladi: umumiy til va uslubda bo‘lmasliklariga qaramay, falsafa va din bir-biriga foyda keltiradimi? Bizningcha, hanuzgacha oxirgi javob yo‘q, chunki ilohiyotshunoslar, faylasuflar va olimlarning fikrlari hozirgi kunda ham har xil. Shunga qaramay, falsafa va dinni uyg‘unlashtirish bo‘yicha yangi sa‘y-harakatlarni amalga oshirish, bir tomondan, ilmiy turg‘unlikning oldini olishga, boshqa tomondan, hurofotga va turli xil aqidalarni cheklashga yo‘l qo‘ymaslik uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Asrlar davomida musulmon, yahudiy va nasroniy mutafakkirlarining ongini band etib kelgan va hozir ham davom etayotgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd ijodidagi asosiy

masala: e'tiqod va aql o'rtasidagi munosabatdir. E'tiqod aqlning harakatining oldini oladimi yoki cheklaydimi?¹, o'rta asr Sharq falsafasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi Peter Leuprecht "Aql, adolat va qadr-qimmat" nomli asarida Sharq falsafasining va qolaversa, G'arb falsafasining markaziy masalalaridan biri e'tiqod va aql uyg'unligi borasida o'z xulosalarini bera olgan.

TADQIQOTNING USULLARI

Ibn Rushd din yohud e'tiqod hamda falsafa yohud aql o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish maqsadida bu ikki sohani uyg'unlashtirgan "Ikki haqiqat" konsepsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi "Ikki haqiqat" konsepsiyasining kelib chiqish tarixini, uning nazariy va g'oyaviy asoslarini tahlil qilish tashkil etadi. Shu maqsadni ko'zlab, tadqiqotda yahudiy, nasroniylik, islom dinlari faylasuflarining din va falsafani uyg'unlashtirishga bo'lgan urinishlarni ko'rib chiqish asosiy vazifa qilib olinadi.

Usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda dialektik, tizimlashtirish, germenevtik, sinergetik, tahliliy va tahliliy-qiyosiy metodlardan keng foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda verifikatsiya, to'ldiruvchanlik, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan ham foydalanildi. Bu tadqiqot usullarining o'zaro aloqadorligi vositasida amalga oshirildi.

NATIJALAR

Falsafa va shariat o'rtasida murosaga kelish zarurligini his qilish – bu ikki sohadagi tadqiqotlar bilan shug'ullanadiganlarning barchasi uchun tabiiy tuyg'u desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buni yarashtirishga urinish qaysidir ma'noda bajarilishi lozim bo'lgan vazifa va o'z fikrida muqaddaslikka ega bo'lgan aqida sohibi diniy faylasufni o'ziga tortadigan masala sanaladi.

Shu maqsadda, biz yunonlar falsafa va diniy an'analar yoki afsonalar o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lishi kerakligini bilishlarini o'qiganmiz. Shuningdek, biz barcha falsafiy maktablar va ularning a'zolari, xususan, Suqrot, Aflotun, stoiklar va Iskandariya faylasuflari tomonidan ma'qullangan axloqiy va ijtimoiy maqsadga muvofiqligini bilgan dinga putur yetkazishni taqiqlaydigan diniy masalalarni ham topishimiz mumkin. Bu tendensiya (yahudiy) Filon yahudiy dinining dogmalarini yunon falsafasi (Aflotun, stoitsizm, Pifagor qarashlari) bilan bog'lab, logos ta'limotini maxsus ishlab chiqadi, uni oliy g'oya (Xudoning noibi) sifatida tasvirladi va xristian cherkovining ba'zi otalari orasida xos mavqega ega bo'lganligini ko'rish tabiiydir.

Musulmonlarga kelsak, islom dinini, uning ruhi va barcha ishlarda vositachilikka chaqiruvchi, ixtilof qiluvchilar o'rtasida murosaga kelishni taqozo etuvchi ta'limotini tushunadigan va islom tarixini, ayniqsa, ilmiy jihatini o'rganuvchi olimlar ham bo'lgan. Ular bu ikki tarafni uyg'unlashtirishga urinishlari bilan islom dinidagi yo'nalishlarning ixtiloflarini ham bartaraf etishga harakat qildilar.

Biz bu hodisani ash'ariy mazhabida ifodalangan ilohiyotda uchratamiz, u matnlarni qabul qilishga asoslangan salaf ta'limoti bilan Qur'on matnlarini tushunish va ularni aqlga muvofiq talqin qilishda aqlga erkinlik bergan mu'tazila ta'limoti o'rtasidagi o'rta asos bo'lgan, desak ham bo'ladi. Mu'taziliylarning o'zlari aql va e'tiqod Allohdan ekanligi va bir-biriga zid bo'lmagani, payg'ambarlar esa aql yeta olmaydigan narsani nozil qilmaganligi haqida qaror qilganlarini ko'ramiz. Shuning uchun vahiy keltirgan narsa oqilona bo'lishi kerak, aks holda uni oqilona talqin qilish kerak, deb bilganlar. Shariatda biz hadisga asoslangan molikiylik mazhabini, bunga

¹ Peter Leuprecht. Reason, Justice and Dignity. Brill/Nijhoff, 2012. – P. 32.

qo'shimcha ravishda fikr va mantiqiy qiyosga asoslangan hanafiylik mazhabini bilamiz va Shofey mazhabini esa bu ikki tomon o'rtasida vositachi yoki birlashtiruvchi sifatida ko'rshimiz mumkin.

Agar tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bu uyg'unlikni taqozo etsa, faylasuflar o'zlari to'g'ri deb hisoblagan din bilan to'g'ri mulohaza va sog'lom mantiq asosiga qurilgan falsafani murosaga keltirish ustida ish olib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Albatta, din va e'tiqod uyg'unligiga erishish xristian dinida ham bo'lgan. Yuqoridagilar kabi bular ham musulmon arab faylasuflari qarashlariga turtki bo'lganlar. Falsafa tarixini kuzatar ekanmiz, din va falsafani uyg'unlashtirishga urinishlar xristian dinida ilk bor iskandariyalik Klement tomonidan ilgari surilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Klement cherkov uchun falsafa zarurligini asoslaydi. U Xudoning o'zi falsafani ellinlarga Xudoni bilish quroli sifatida berganligini yozadi. U: "Vahiy va falsafa teng emas, garchi ular bir-birini to'ldirsa ham: ular ruhni haqiqatga, Logosni bilishga tayyorlaydilar. Boshqacha qilib aytganda, falsafa ilohiy vahiyning intellektual yo'li sifatida zarurdir², deb ta'kidlaydi. Klement falsafani bo'sh dunyoviy nafosat, deb hisoblaydiganlarning qarashlarini qattiq tanqid qiladi, ulardan faqat bid'at va qalblarda chalkashliklar bor, deydi: "Ellinlar hech qanday vahiyisiz, yagona Xudo - Olamning birinchi sababi va chegarasi mavjudligini anglab yetdilar, chunki Xudo yagona bilim manbayidir"³, deb ta'kidlaydi.

Klement birinchi bo'lib imon va aql o'rtasidagi munosabatlar muammosini qadimgi skeptitsizmni yengish yo'li sifatida aniq qo'ydi. Imon – bu bilimni bevosita idrok etishdir. Biz sillogizmning asoslarini shunday idrok qilamiz. Biroq, bu shunchaki o'z-o'zidan dalil yoki sezgi emas. E'tiqod – bu tanlov harakati, shaxsning o'z ongiga munosabatini shakllantirish harakati, buning uchun shaxs javobgardir. Imon yordamida inson kelajakdagi vaziyatni tahlil qila oladi, bu esa o'zini ko'p muammolardan himoya qilishga imkon beradi. Imonning kuchayishi Klement diniy hayotning ustunligini isbotlaydigan umidni keltirib chiqaradi. Butparastlar bir-biri bilan doimiy to'qnashuv holatida bo'lgan ko'plab xudolarga ishonishadi. Dahriylarning hayoti ham qiyinchiliklarga to'la, chunki ular Xudodan ne'mat kutmaydilar. Hodisalarning tashqi tartibsizliklari ortida bizga borliq ato etgan transsendent (oliy) Zot turganini, bu yerdagi hayot faqat abadiy hayotga tayyorgarlik ekanligini, hayotning mazmuni saodatning chegarasi bo'lgan narigi dunyoda ekanligini faqat dindor kishigina tushunadi. "Bunday munosabat bilan bu yerda hayotning barcha qiyinchiliklarini osongina yengib o'tish mumkin"⁴, degan fikrlarni olg'a suradi.

Klementning "Stromatalar" asarining ikkinchi kitobi, asosan, e'tiqod va falsafiy mulohazaning roliga bag'ishlangan. Klement "Har ikkisi ham muhim bo'lsa-da, Xudodan qo'rqish hamma narsadan ustundir, chunki inson iymon orqali ilohiy hikmat oladi"⁵, deb ta'kidlaydi. Klementning fikricha, Muqaddas Yozuv – Logos orqali inson aqli bilan to'ldirilgan tug'ma haqiqiy ibtidoiy falsafadir. Imon ixtiyoriydir va ishonish qarori Xudoga yaqinlashishda hal qiluvchi asosiy qadamdir⁶. Bu qaror hech qachon mantiqsiz emas, chunki u Logos haqiqati

² Саврей В.Я. Александрийская школа в истории философско-богословской мысли. – М.: КомКнига, 2006. – С. 303–418.

³ Саврей В.Я. Александрийская школа в истории философско-богословской мысли. – М.: КомКнига, 2006. – С. 303–418.

⁴ Климент Александрийский. **Строматы**. В 3 т./ – Т. 1. Кн. 1-3./ Подг. текста, пер., пред. и комм. Е. В. Афонасина. – Санкт-Петербург: Изд-во Олега Абышко, 2003. – С. 154.

⁵ Osborn Eric. Arguments for Faith in Clement of Alexandria. – England, 1994. – P. 3.

⁶ John Ferguson. **Clement of Alexandria**. – New York: Twayne Publishers, 1974. – P. 121.

haqidagi bilimga asoslanadi, lekin bu bilim imon orqali keladi, chunki bu bilimning asosiy tamoyillarini isbotlab bo'lmaydi.

Yahudiylik, xristianlikda bo'lgani kabi islomda ham din va falsafani uyg'unlashtirishga urinishlar ko'p bo'lgan. O'rta asr faylasuflarining dunyoqarashi antik davr faylasuflaridan farq qiladi. O'rta asr faylasuflarining barchasi kuchli diniy e'tiqodli, ya'ni dindor bo'lganlar, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari islom diniga e'tiqod qilganlar. Xudo, olam va insonning dunyodagi o'rni haqida o'rta asrlarda muayyan diniy qarashlar tizimi mavjud bo'lgan. "Bu davrda yashab ijod etgan allomalar, olimlar bu qarashlarni qabul qilganlar, o'zlashtirganlar. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning o'z asarlarini Alloh nomi bilan boshlab va uning nomi bilan tugatishlari fikrimizning dalilidir. Xuddi shu holat bu davrda yashab ijod etgan mutafakkirlar falsafiy dunyoqarashining o'ziga xos tarzda shakllanishiga sabab bo'ldi"⁷.

Hatto falsafa asoschisi Al-Kindiy ham falsafaning dindan umuman farq qilmasligini isbotlay boshladi. Shuning uchun Zahiriddin al-Bayhaqiy u haqida "ba'zi asarlarida shariat asoslari va aql-idrok tamoyillarini birlashtirgan"⁸ligini tasdiqlaydi.

U o'zining "Birinchii falsafa haqida" risolasida yozganidek, falsafa narsalarning asl mohiyati haqidagi ilm bo'lib, bunday fan ilohiylik (rububiya), Allohning yagonaligi, fazilat, barcha foydali narsalar va unga yo'l haqidagi, zararli narsalardan uzoqlashish va undan qochish haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Bu barcha ma'lumotlarga ega bo'lish Uning haqiqiy payg'ambarlari (rusullari) Allohdan kelganligini, ya'ni yolg'iz Allohning ilohligini tan olish, O'zi rozi bo'lgan fazilatlarga ergashish hamda mohiyatan va ularning oqibatlariga ko'ra bu fazilatlarga zid bo'lgan illatlardan qochishdir⁹.

Al-Kindiy fikricha, haqiqat umumbashariy mulk bo'lib, haqiqiy musulmon boshqa madaniyatlarning falsafiy yutuqlariga ochiq bo'lishi kerak: "Ha, biz haqiqatni ma'qullashdan va unga ega bo'lishdan uyalmasligimiz kerak, u qayerdan bo'lmasin, hatto bizdan [vaqt bo'yicha] uzoqda yoki bizdan boshqa xalqlardan [e'tiqodga ko'ra] bo'lsa ham biz uni ma'qullashimiz kerak. Haqiqat izlovchi uchun haqiqatning o'zidan yaxshiroq narsa yo'q: haqiqat uni so'zlovchi yoki yetkazuvchining [ahamiyatsizligi] tufayli kamsitilmaydi va kamaytirilmaydi; va haqiqatni [qo'lga kiritish bilan] hech kimni kamsitmaydi, aksincha, haqiqat hammani yuksaltiradi"¹⁰.

Al-Kindiy, shuningdek, "Arastuning kitoblari soni to'g'risida" risolasida falsafa va dinning ("ilohiy bilim") birligini ta'kidlab, ularni bir-biridan farqlaydi. Falsafa ham insoniyatning boshqa bilimlari kabi odamlardan izlanish va mehnat qilishni, matematika va mantiq fanlarida zukkolikni, ma'lum bir vaqtni talab qiladi. Payg'ambarlarga in'om etilgan ilohiy ilm bunga o'xshash narsaga muhtoj emas, balki "faqat O'zining irodasi bilan O'zining hidoyati tufayli elchilarning qalblarini poklash va haqiqatni tushunish uchun olingan ilhom va risolatdir.

Al-Kindiy falsafa fanini o'rganishning zarurligini isbot qilishga urinib, uni tabiat va jamiyat hodisalarini tushuntirib beradigan, borliqni bilishning muhim quroli deb aytadi. Kindiyning fikricha, "Falsafaning muholiflari yo falsafaning zarurligini tan olishlari, yoki uning zarurligini inkor etishlari kerak. Agar ular uning zarurligini tan olsalar, falsafani izlashlari kerak.

⁷ Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. – М.: Наука, 1988. – С.119.

⁸ Zahiriddin Abulhasan Ali ibn Zayd Bayhaqiy. Tatimma "Sivon al-hikma". Qohira: Dar va maktabatu bibliyun, 2007. – B. 145.

⁹ Ал-Кинди. О первой философии // Избранные произведения мыслиелей стран Ближнего и Среднего Востока // сост. Григорян С.Н., Сагадеев А.В. – М., 1961. – С.132.

¹⁰ Ал-Кинди. Трактат о количестве книг Арастуя и о том, что необходимо для усвоения философии // Средневековая арабо-мусульманская философия//перевод А.В. Сагадеева. Т.1. – С. 31–43.

Va agar zarurligini inkor qilsalar, inkor qilish sababini ochib, dalil bilan isbotlashlari kerak. Sababni oshkor qilish va dalillarni keltirish narsalarning mohiyati haqidagi ilmning, ya'ni falsafaning mutlaq vakolatidir"¹¹.

Al-Kindiy, falsafaning dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar deb uqtiradi. Buni shunday tushinish mumkin: "Bordi-yu, biror kishi agar falsafa bilan shug'ullanish yaramaydi desa, doim nima uchun yaramaydi, deb so'rashimiz mumkin. Shunda raqib o'zi aytgan fikrning haqiqat ekanligini tasdiqlovchi mantiqiy dalillar keltirishi kerak bo'ladi, ya'ni bunda u o'z-o'zidan faylasuflik qilishi kerak bo'ladi"¹², deb yozadi u. Bu oddiy misol orqali Al-Kindiy falsafaning zarurligini uqtiribgina qolmay, balki falsafaning vazifasi nimadan iborat, inson aqli narsa va hodisalarning asl mohiyatini bilishga qodirmi degan savollarga ham javob berishga harakat qiladi. Falsafa deydi u, boshqa fanlar singari narsa va hodisalarning sabablarini tekshiradi. U noma'lum haqiqatning sababini topish orqaligina uning mohiyatini bilish mumkin deydi.

Forobiy ham bu yo'lda katta muvaffaqiyatlarga erishdi, u haqiqatning turli yo'llar va usullarda ifodalangan bo'lsa ham, yagona ekanligini aniqladi. U aqlni yoki e'tiqodni e'tiborsiz qoldirmadi, aksincha, ular bir-birlarini o'zlariga tortdilar, deb ta'rif berdi. Forobiy din va falsafani haqiqatga yetishishning ikki mustaqil usuli, deb hisobladi. Uning fikricha, "Falsafadagi masalalar isbotini payg'am-barlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o'rtasida hech qanday tafovut yo'q"¹³. Bunday qarash o'z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi.

Nabaviylik, Forobiyning fikricha, g'ayritabiiy narsa emas, Payg'ambar alayhissalom, avvalo, passiv aqlni qo'lga kiritish orqali, so'ngra bilimdon aqlni qo'lga kiritish orqali tasavvur kuchi eng kamolotga erishgan shaxsdir. U faol aql bilan aloqada bo'ladi, so'ngra undan qisman emanatsiya yo'li bilan o'tadi.

Payg'ambar alayhissalom vahiylarning to'g'riligiga dalil sifatida keltirgan mo'jizalarga kelsak, ularning Forobiyga ko'ra oqilona talqini borligini ham ko'ramiz va o'shanda – u aytganidek – payg'ambarlik ilohiylik bilan bog'liqligini bilamiz.

Buyuk yaratilish olamini o'ziga bo'ysundiruvchi ilohiy kuchlar, xuddi bizdan birimizning ruhimiz kichikroq ijod olamiga bo'ysunganidek, u mo'jizalar yaratadi. U vasvasalar va urf-odatlardan tashqaridadir va hech narsa unga dunyoda nima borligini bilishga to'sqinlik qilmaydi.

Demak, Forobiy fikricha, "Payg'ambar va faylasuf ularning har biri boshqasi bilan faol aql-idrok bilan yaqin bo'lib, ularning orasidagi farq shundaki, birinchisi aqliy kuch kamolotidan keyin o'z tasavvuridagi quvvati kamoloti bilan bu darajaga erishadi. lekin albatta, faylasuf esa unga qarab, fikr yuritib yetadi va bunda bizningcha, unchalik katta farq yo'q"¹⁴.

Forobiy fikricha, payg'ambar va faylasuf ularning har biri o'zaro faol aql jihatdan aloqador bo'lib, ularning orasidagi farq shuki, birinchisi aql-idrok kamolotidan so'ng o'zining ilohiy qudrati kamoloti bilan bu darajaga erishadi. Faylasuf esa o'z qarashlari va tafakkuri orqali erishadi. Bizningcha bu, katta farq emas shekilli.

¹¹ Ал-Кинди. Трактат о количестве книг Арастуя и о том, что необходимо для усвоения философии // Средневековая арабо-мусульманская философия//перевод А.В. Сагадеева. Т.1. – С. 31–43.

¹² Ал-Кинди. Трактат о количестве книг Арастуя и о том, что необходимо для усвоения философии // Средневековая арабо-мусульманская философия//перевод А.В. Сагадеева. Т.1. – С. 38.

¹³ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoniy. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. –Tehron, hijriy 1377/1998. –B.133. (fors tilida)

¹⁴ Forobiy. Fozil odamlarshahri. – T., 2016. – B. 72.

Demak, bu uning vahiy va aql o'rtasida murosaga kelishga urinishi edi, biz ko'rib turganimizdek, u o'z fikrida garchi turli yo'llar bilan ifodalanishi mumkin bo'lsa ham, haqiqat bir ekanligini o'rnatgan. Shuning uchun, bu tamoyildan kelib chiqqan holda, "Ikki donishmand fikrlari o'rtasidagi uyg'unlik" nomli kitobida u "Birinchi muallim" va "Aflotun" o'rtasida murosaga kelishga harakat qilgan. Shunday ekan, biz u falsafadan kelgan haqiqat bilan payg'ambarlik vahiydan kelgan haqiqat o'rtasida ushbu tamoyilni qo'llash orqali yarashtirishga harakat qilayotganini ko'rsak bo'ladi.

Alloh islom dinida hamma narsaning Yaratuvchisi, Uning amrisiz hech bir narsa barhayot bo'lmagan, katta-kichik hamma narsani mayda-chuydasi bilan biluvchi va O'zi bilan yaratganlari orasida vositachi bo'lmagan zotdir. Shu sababli, Forobiy va boshqa islom faylasuflarining muammosi falsafada keltirilgan Xudo va Qur'onda keltirilgan Xudo o'rtasida yarashtirishga harakat qilish edi. Lekin biz bilamizki, u o'z urinishida muvaffaqiyatga yuqori darajada erishmagan edi.

Yuqorida Forobiyning o'z asarida yozganlari bo'yicha harakatlanishimiz maqsadga muvoqdir. Forobiy o'z qarashlarida ularni bir-biridan ajratib bo'lmashligini ta'kidlab o'tdi. Forobiyning nazarida diniy haqiqatlar falsafiy misollardan iborat edi. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayanadi, din esa o'sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir¹⁵.

Din va falsafaning yagona birligi haqidagi uning mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo'yganligiga diqqat-e'tiborni qarata boshladilar. Ammo Forobiy "Din falsafaning misollaridir" degan vaqtda qayd etib o'tgan ediki, "Payg'ambar xalq tilida so'zlashga majbur, chunki omma daliliy hukmlarni tushunmaganligi sababli daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan o'zga chora yo'q, shunday ekan payg'ambar ham faylasufdir, deb hisoblagan"¹⁶.

Forobiyning fikriga ko'ra, avomning diniy qarashlari uning falsafiy xulosalariga doim ham mos tushavermaydi va buning zaruriyati ham yo'q¹⁷. Shuning uchun u o'z fikrlarini bevosita avomga moslashtirmagan edi. U avom meni tushunadi, deb ham o'ylamagan va, aksincha, bundan xavotir ham olganki, uningcha, avomning falsafaga aralashishi uni buzadi, deb o'ylagan.

Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ydi. Faylasuflar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, "Falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o'rtasida hech qanday tafovut yo'q¹⁸. Bunday qarash o'z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi.

Shu jihatdan kelib chiqib, u ko'pgina fikrlarini turli ishoralar bilan majhulroq tarzda yozar, sodda va ochiqchasiga bildirilgan mulohazalarga esa kamdan kam hollarda yo'l qo'yar edi. Ayni paytda u o'zining eng sodda fikrlarini ham kelajakda tafsirga sazovor, deb bilishlaridan umidvor bo'lgan. Uning umidvorligi bejiz emas edi. Zero, undan keyingi ma'rifat ahli va faylasuflarning barchasi uning asl maqsadini tushunishga diqqat-e'tibor bilan kirishdilar va allomaning eng

¹⁵ Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. – Tehron, hijriy 1377/1998. – B. 116. (fors tilida)

¹⁶ Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. – Tehron, hijriy 1377/1998. – B. 116. (fors tilida)

¹⁷ O'sha asar. – B. 116. (fors tilida)

¹⁸ Po'latova D., Qodirov M. va boshqalar. Sharq falsafasi. – T.: Jahon print. – B. 90.

sodda gaplarini ham o‘zlaricha tafsir qilib, yanada maqbul shaklga keltirdilar. Bunga misol tariqasida shayxur-ra'is Abu Ali ibn Sinoning “Shifo” asaridagi payg‘ambarlik haqidagi bahsni ko‘rsatish mumkin¹⁹.

Faylasuf-mantiqshunos Sijistoniy ham din va falsafa borasida o‘z fikrlarini bayon etganligini ko‘rishimiz mumkin. As-Sijistoniy din va falsafa o‘rtasidagi munosabatlar haqida aniq va qat’iy fikrga ega bo‘lib, bu uning ikkisini ham o‘ta chuqur tafakkur qilishi va tushinishi natijasidir. Chunki zamondoshlari o‘rtasidagi bu munosabatlarni aniqlashga harakat qilgan. Bu shariat va falsafani to‘liq ajratish zarurligi haqidagi fikrdir. Bu ularning tabiati, maqsadi, vositalari va ta’sir maydonidagi farqiga bog‘liqdir.

Biroq, yuqoridagilardan shariat, uning fikricha, to‘liq emas, uni falsafa bilan to‘ldirish zarur, deb tushunmaslik kerak. Avval ham va o‘z maqsadiga ko‘ra ham, dinning maqsadi qalbni ezgulik bilan to‘ldirishdir. Donolik yoki falsafaning maqsadi esa aqlni haqiqatlar va bilimlar bilan shakllantirishdir. Yoki u aytganidek, “Falsafa – ruhning surati va din ruhning siyratidir, shuning uchun har biri bir-birini to‘ldiradi. Ular o‘rtasida hech qanday qarama-qarshilik yo‘q. Bunda faqat ularni chalkashtirib yubormaslik kerak, shundagina bu ikkisinining egalari baxtiga erishiladi”²⁰.

Shundan so‘ng ta’kidlaydiki, agar bu ikki haddan tashqari qo‘shilish joiz va mumkin bo‘lsa, Alloh uni ogohlantirgan bo‘lardi va shariat sohibi o‘z shariatini falsafa bilan to‘ldirgan bo‘lardi, lekin u buni qilmagan va unga topshirmagan. Boshqa o‘z vorislari va dinidagi mas’ullar, aksincha, bu ishlar bilan shug‘ullanishdan qaytardilar.

Shunga qaramay, biz As-Sijistoniyning shariat va falsafa o‘rtasida ajralish zarurligini ko‘rdik va u ularni yarashtirishga harakat qilmaganidek, ularni yarashtirishga harakat qilishdan manfaatdor emas yoki bundan qanoatlanmaganligining guvohi bo‘ldik. Bunda u Forobiy yo‘lidan yurmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Arastuning Mantiq ilmi bo‘yicha davomchisi Miskavayhning fikricha, payg‘ambar va faylasuf idrok etgan haqiqatlar bir bo‘lgani uchun faylasuf payg‘ambar keltirgan narsaga boshqalardan ko‘ra tezroq ishonib, uni qabul qiladi. Buning sababi shundaki, u aqli inkor etmaydigan narsani o‘ylab topdi. Odamlar to‘g‘ri qarash bilan da’vat qilingan narsaning haqqoniyligini bilish donishmandlar nazarida bo‘lsa ham, inson saodatiga erishadigan foydali amallarni bilish uchun payg‘ambarlarga muhtojdirlar²¹. Miskavayh fikricha, barcha qadimgi zamon hakimlari xudoning mavjudligi va uning yagonaligiga ishonib, bu masalada payg‘ambarlar ta’limoti bilan muvofiq edilar²².

Mazkur masala yuzasidan Ibn Sino ham o‘ziga xos fikrlarini bildirgan. Ibn Sino “Ash-Shifo” ensiklopedik asarining, asosan, metafizika bo‘limida payg‘ambarlik muhokamasi doirasida axloqiy va siyosiy masalalarga qisqacha to‘xtalib o‘tadi, bu esa muallifning axloq va siyosatga alohida asarlar bag‘ishlash niyati bilan izohlanadi. Bu yerda faylasuf “chiroyli” (lekin, aftidan, ilohiy belgilanmagan) turmush tarzi (sunna hamida) bo‘lgan shaharlardan va “buzilgan” (fasida) shaharlar yoki “to‘liq xato” jamoalardan farqli ravishda “mukammal” (fadila, ’adila) shaharni vahiy qilingan Qonunga amal qilgan holda gapiradi.

Alloh taoloning izni va vahiy bilan shahar hukmdori-asoschisi bir vaqtning o‘zida payg‘ambar va faylasuf bo‘lib, jamoat va shaxsiy hayotni tartibga soluvchi qonunlar (sunan)

¹⁹ O‘sha asar. – B. 90.

²⁰ محمد يوسف موسى. ابن رشد الفيلسوف. القاهرة. 2014.

²¹ Miskavayh. Tajoribulumam. – Beirut, 2002. – S. 52.

²² Miskavayh. Al-fuzul asg‘ar. 2-bob. – Misr, 2004. – S. 48.

oʻrnatadi. Bu qonunlarning oʻzi yaratuvchi, yagona, hamma narsani biluvchi va qudratli boʻlgan Xudo haqida, Uning koʻrsatmalariga boʻysunganlarni mukofotlaydigan va ularga boʻysunmaganlarni jazolaydigan taʼlimot qoidalariga asoslanadi. Shu bilan birga, faylasufning fikricha, paygʻambar keng omma tushunishi qiyin boʻlgan masalalarni kengaytirmasligi kerak. Shuningdek, Paygʻambar alayhissalom oxirat, u yerdagi baxt va baxtsizlikni odamlarga oʻzlariga maʼlum boʻlgan va qalblariga mos tarzda taqdim etishlari kerak.

Soʻngra Ibn Sino Qonunning amaliy koʻrsatmalarini atroflicha asoslab, islom dinining diniy farmonlariga oʻxshash diniy marosimlarga (namoz, roʻza, ziyorat va hokazo) ishora qiladi va ijtimoiy hayotga nisbatan oilaning toʻgʻri meʼyorlarini taʼriflaydi: “Kim nazariy hikmatni koʻrsatilgan amaliy fazilatlar bilan uygʻunlashtirsa, u ham baxtni topadi”²³.

Shuningdek, Ibn Sinoning “Risolayi tadbiri manzil” asarida fikrlarini tahlil etib, falsafa fanlari doktori, professor R.Nosirov quyidagi jummalarni keltiradi: “Demak, Ibn Sinoning fikricha, qonun oʻrnatuvchi paygʻambarga boʻlgan ehtiyoj tabiiy zaruriyat ekan. Bunday inson paydo boʻlar ekan, u Alloh amrlariga monand keladigan qonun-qoidalarni odamlar hayotiga joriy etishi kutiladi. Joriy etilgan qonunlar asosida qudratli yaratuvchi, uning olamda sodir boʻlayotgan va sodir boʻlishi mumkin barcha hodisalarning botiniy va zohiriy sir-asrorlaridan boxabar ekanligi, unga odamlarning barcha saʼy-harakatlarining soʻzsiz boʻysunishi zarur. Uning soʻzlari kishilarga samarali taʼsir etishi uchun konkret obraz-timsollar, masalan, tanning azoblanishi yoki rohatlanishi sifatida bayon etilishi muhimdir, chunki hamma odamlar mohiyatan donishmand emas. Ularda imon-eʼtiqodni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida rasm-rusum. Urf-odatlariga muntazam ravishda amal qilish koʻzda tutiladi”²⁴.

Shuningdek, eʼtiqod bilan bir qatorda aql ham zarurligi borasida Sharq peripatetiklarining qarashlaridan munosib taʼsirlangan Fahriddiy Roziy ham oʻz qarashlarini bildirgan.

Roziy oʻzining “Ilm fazilati haqida” asarida bu borada oʻz davri uchun xavfli boʻlgan fikrlarni qatʼiyat bilan ayta oladi. Bunda u barcha musulmonlarni oz boʻlsa-da, tafakkur qilishga, boshqa ilmlarni ham oʻrganishga, ularni hayotlarini yaxshilash maqsadida hayotiy tajribada qoʻllashga chaqiradi. Jannatga kirish uchun tun-u kun faqatgina toat-ibodat qilish emas, insoniyat taraqqiyoti yoʻlida foydali ilmlarni oʻrganish va oʻrgangan ilmini oʻzgalarga foydasi tegadigan maqsadda foydalanish kerakligini taʼkidlagan. Bu haqida shunday fikr bildiradi: “Rasululloh alayhissalom marhamat qiladilarki: bir soat tafakkur qilish 60 yil ibodatdan afzaldir”²⁵.

Toat-ibodatdan maqsad nima? degan savol tugʻiladi. Maqsad esa bitta – Xudoning marhamatini bajarish va savobga ega boʻlish. Oxir-oqibat esa jannatdan joy olish. Bu yaxshi albatta, lekin Roziy Xudo maʼrifatini, yaʼni ilmini oʻrganish nafsning nasibasidan muhim va afzalroq ekanligini taʼkidlaydi. Moʻmin musulmonlarni faqatgina toat qilish nafsni orqali jannatga borishgina emas, balki foydali ilm oʻrganish orqali ham bu maqsadga erishsa boʻlishini nazarda tutgan²⁶. Bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Shuni bilgilki aqliy dalil bilan aytilgan soʻz yuz koʻrinishidan koʻra koʻproq narsani mustahkamlaydi. Shu jihatdanki, banda aqlining tafakkuri uni Xudo maʼrifatiga yetkazadi. Toat qilish bandani savobga yetkazadi, savob oʻz nafsining

²³ Ibn Sino. Ash-Shifo: al-ilyaxiyyat. Qohira, 1960. – S. 26.

²⁴ Oʻzbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. I.Moʻminov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Toshkent, 2007. – B.70.

²⁵ Fahr Addin Raziy. Latoif ul-Giyosiyot. (arab tilida) Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv №10873).

²⁶ Umarjonov S. S., Safarov M.K. Fahriddin Roziyning “Latoif ul-Giyosiyot” qoʻlyozma asarida aql va eʼtiqod masalasining qoʻyilishi va uning diniy-falsafiy germeneytik tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. – V. 6.

nasibasidir. Xudoyi taoloning ma'rifati nafsning nasibasidan afzalroqdir. Demak, fikr yuritish ibodatdan afzalroqdir"²⁷.

Musulmon Sharqi faylasuf va mutafakkirlarining din va falsafa o'rtasidagi munosabatni belgilashda turli xillikni ko'rdik. Ulardan ba'zilari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, As-Sijistoniy kabi ularni bir-biridan ajratish zarurligini, ba'zilari Al-Kindiy, Forobiy va Ibn Sino kabilar esa o'rtasida murosa topishni ma'qul ko'rdilar. Mazkur masala Marokash faylasuflari va uning mutafakkirlarini ham o'ylantirdi.

Navbatdagi faylasufimiz Ibn Rushdning zamondoshi Abu Bakr ibn Tufayldir. U Sulton Abu Yusuf Yaqub davrida (hijriy 581/milodiy 1185-yil vafotigacha) Almohodlar oilasi qaramog'ida yaxshi hayot kechirdi. U o'zining "Hayy ibn Yaqzon" haqidagi falsafiy qissasidan maqsad e'tiqod va aql birligini, ya'ni ularni ikki haqiqat ekanligini ko'rsatish edi.

Ibn Tufayl "Hayy ibn Yaqzon qissasida" Hind okeanidagi orollardan birida, ekvatorga yaqin joyda, tabiatning o'zidan "na onasi, na otasi bo'lgan" inson bolasi paydo bo'lganini, uning ismi Hayy bo'lganligini aytadi. Avvaliga go'dakni bolasidan ayrilgan jayron boqdi. Yovvoyi tabiat bilan yakkama-yakka yashab, bola turmush tarzini asta-sekin o'zgartirib, uni o'zlashtira boshladi. Xullas, avval yalang'och joyini yaproqlar, so'ngra hayvonlarning terilari bilan qopladi. Hayvonlardan himoya qilish uchun daraxt shoxlaridan tayoq yasab, Hayy "ko'z o'ngida biroq ko'tarildi" va uning qo'li hayvonlarning panjalaridan sezilarli darajada ustunlik qiladi, degan xulosaga keldi, chunki u bilan yalang'ochlik va o'zini himoya qilish uchun tayoqlar yasashga muvaffaq bo'ldi. Bu unga avvalgi orzusidagi narsalarsiz – dumisiz va tabiiy qurollarsiz qilish imkonini berdi.

Ona jayron vafotidan so'ng, bola tanasining hayotiy faoliyatini tartibga soluvchi tamoyilni tushunishga harakat qilib, o'tkir toshlar va quruq qamish bo'laklari yordamida jayronning ko'kragini ochish uchun bir turdagi pichoqlar yasadi. Yurakka yetib, u tanani boshqaradigan va o'lim bilan undan ajralib turadigan ruhni kashf etdi. Hayyning fikrlari esa tanadan ruhga ko'chdi. Va bundan buyon uning qiziqishi faqat shunga qaratilgan edi.

Olovni yumshatgan Hayy tez orada ruhning olovga o'xshash tabiatini angladi. Turli toifadagi mavjudotlarni – hayvonlar, o'simliklar va minerallarni diqqat bilan kuzatar ekan, u nafaqat har bir toifadagi mavjudotlarning, balki barcha toifadagi mavjudotlarning birligini kashf etdi va "hamma mavjudot ... uning oldida birlashgan narsa sifatida paydo bo'ldi"²⁸.

Hayy jismoniy voqealarni bilishdan ruhni va u bilan birga aqlni anglaydigan metafizik mavjudotlarni bilishga harakat qiladi. Hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari uni Birinchi sabab, Yaratuvchi (Xudo) mavjudligi haqidagi g'oyaga olib keldi. O'z navbatida, dunyoda hukmronlik qilgan tartib va uyg'unlik Yaratganning donoligidan, hamma narsani bilishidan dalolat beradi. Hayy, shuningdek, maxluqotning barcha ulug'ligi va kamoloti Yaratguvchidan ekanligini va Unga "juda katta imkoniyatlar" xos ekanligini ham tushundi.

Hayy o'z shaxsiyati haqida fikr yuritib, shunday xulosaga keldi: Xudo o'lmas bo'lishi kerak. Ruhning eng katta baxti borliqning mutlaq birligini, Xudo bilan "birlashish" (ittisal) va Unda "yo'qolib ketish" (fana') – "o'z tabiatiga ko'ra ifodalab bo'lmaydigan" holatni his qilishdan iborat. Hayy o'zini so'fiyga aylanib qolgandek, shunday hayajonli holatga keltirishni o'rgandi.

²⁷ Fahr Addin Raziy. Latoif ul-Giyosiyot. (arab tilida) O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv №10873).

²⁸ Ибн Туфайл. Повесть о Хайе ибн Якзане // Мусулманская философия (Фалсафа): антология. – М., 2006. – С. 483.

Ibn Tufayl qissaning davomida umrining qolgan qismini yolgʻizlikda va ibodatda oʻtkazish uchun bu yerga koʻchib oʻtgan qoʻshni orolda yashovchi Absolning uchratishi haqida hikoya qiladi. Absol orolida odamlar Xudoning paygʻambarlaridan biriga tegishli dinga eʼtiqod qilishgan. Bu din “odatda keng ommaga qaratilgan nutqda boʻlgani kabi” anʼanaviy tasvirlarda (amsal) taqdim etiladi. Absolning oʻzi bu obrazlarning ichki, maʼnaviy mazmuniga kirib borishga moyil boʻlib, ularni allegorik (dalilga asoslanib) talqin qilishga (taʼvil) intilardi.

Hayyga oʻz tilini oʻrgatib, u bilan suhbat chogʻida Absol vatanida keng tarqalgan din aqidalari – Xudo, farishtalar, Muqaddas kitob, paygʻambarlar, qiyomat, hukm, jannat va doʻzax haqidagi aqidalar ularning toʻgʻri talqini shunday ekanligini aniqladi. Ular Hayy aqlning tabiiy nuri orqali kelgan oʻsha dunyoqarashga toʻgʻri keladi. Absol esa Hayyga xizmat qilishni va unga oʻz eʼtiqodi bilan tanish boʻlgan bir-biriga zid boʻlib tuyulgan dinlarning amaliy koʻrsatmalari borasida uning maslahatlariga amal qilishni oʻz zimmasiga oldi.

Oʻz navbatida, Hayy din aqidalarining oʻz tafakkuriga mosligini tushundi. Yuqorida zikr etilgan dinga asos solgan paygʻambarning Alloh tomonidan berilgan vazifaga ishonchi komil boʻlib, bu paygʻambar tomonidan belgilab qoʻyilgan amaliy vazifalarni – namoz, zakot, roʻza, haj kabilarni ham qabul qildi. Ayni vaqtda ikki savol uning qalbida gʻalayon qilardi. Birinchidan, nega paygʻambar odamlarga haqiqiy eʼtiqodni oʻz holicha ochib berishni istamay, har xil tasvir va masallarga murojaat qildi; ikkinchidan, nega faqat mana shu diniy koʻrsatmalar va urf-odatlar bilan qanoatlanib, mol-dunyo orttirishga, rizq-roʻzda ortiqcha narsalarga yoʻl qoʻyganligi, axir “odamlar faqat behuda ishlarga berilib, haqiqatdan yuz oʻgʻirishlarini bilishadi”²⁹.

XULOSA

Demak, Hayy tabiatan rivojlangan insoniyatni va aqlning tabiiy nurini, paygʻambarlar yordamisiz va vahiyarsiz oʻz-oʻzidan mavjudlikni adekvat idrok etgan holda idrok qiladi. Ibn Tufayl bu qissada eʼtiqod bilan aqlning birligini va har doim bir-birini taqozo etishini koʻrsatmoqchi boʻlgan. Salaman – muqaddas matnlarni faqat tom maʼnoda tushuna oladigan ommaning timsoli. Absol odamlarning muqaddas matnlarni allegorik talqin qilish va mavhum, falsafiy tafakkurga qodir boʻlgan qismini oʻzida mujassam etgan.

Din va falsafaning uygʻunligi haqidagi qarashlarni Al-Kindiy, Forobiy, Sijjistoniy, Ibn Sino, Ar Roziydan bir necha asrdan keyin boshqa mintaqada, Ibn Tufayl, Muso Maymonid bilan bir davrda va bir mintaqada – Andalusiyada Ibn Rushd yanada rivojlantirdi va alohida konsepsiya sifatida shakllantirdi.

Ikki haqiqat borasidagi faylasuflarning fikrlarini eng yakuniga yetkazgan, bunga Qurʼon oyatlari, falsafiy mushohada bilan dalillar keltirib, ularni oʻzaro uygʻunlashtirishga intilishda Ibn Rushd qarashlari choʻqqiga chiqa oldi.

Yuqoridagi faylasuflarning fikrlaridan koʻrinib turibdiki, ularning barchasi oʻz vaziyatidan kelib chiqib, din va falsafani oʻzaro uygʻunlashtirishga, bir-biri bilan kelishtirishga uringanlar. Yaʼni, din va falsafani Haqiqatga erishtiruvchi ikki yoʻl sifatida koʻrganlar. Din va falsafa oʻrtasidagi munosabatga oʻzlarining nuqtayi-nazarlarini berganlar. Bugungi turli xil gʻoyaviy, mafkuraviy tahdidlar davrida dinni toʻgʻri tushuna bilish, uni koʻr-koʻrona emas, aql vositasida anglab yetib, eʼtiqod qilish asosiy masala hisoblanadi.

^{29 29} Ибн Туфайл. Повесть о Хайе ибн Якзане // Мусулманская философия (Фалсафа): антология. – М., 2006. – S. 538.